

POZITIVIZM, NEOLINGVISTIKA, SEMASIOLOGIYA, ETNOLINGVISTIKA VA SOTSIOLOGIZM OQIMLARI

Andijon davlat chet tillari instituti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti

Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Hamdullayeva Mahliyo.

Ilmiy rahbar: O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Kurbanov Elbek Elmurodovich.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Etnolingvistikaning vujudga kelishi va taraqqiy etishi to'g'risida ma'lumot keltirilgan bo'lib, etnolingvistika etnik madaniyat va til o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro bog'liqligi haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: etnolingvistika, nutqiy etiket, etnik omillar, til va madaniyat, komparativistika, pragmalolingvistika, psixolingvistika, mifopetik ijodkorlik, Diaxronik etnolingvistika, ma'naviy madaniyati tarixi.

ПОЗИТИВИЗМ, НЕОЛИНГВИСТИКА, СЕМАСИОЛОГИЯ, ЭТНОЛИНГВИСТИКА И ТЕЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИЗМА

Андижанский государственный институт иностранных языков

Факультет иностранного языка и литературы

Студент направления "Английский язык и литература"

Хамдуллаева Махлиё.

Научный руководитель: Проректор по учебной работе

Курбанов Элбек Элмуродович.

Аннотация: В данной статье представлена информация о возникновении и развитии этнолингвистики, которая рассматривает взаимосвязь между этнической культурой и языком.

Ключевые слова: этнолингвистика, речевой этикет, этнические факторы, язык и культура, компаративистика, прагмалингвистика, психоллингвистика, мифопоэтическое творчество, диахроническая этнолингвистика, история духовной культуры.

POSITIVISM, NEOLINGUISTICS, SEMASIOLOGY, ETHNOLINGUISTICS AND SOCIOLOGICAL CURRENTS

Andijan State Institute of Foreign Languages

Faculty of Foreign Language and Literature

English language and literature student

Hamdullaeva Mahliyo.

Scientific supervisor: Vice-Rector for Academic Affairs

Kurbanov Elbek Elmurodovich.

Abstract: This article provides information on the emergence and development of ethnolinguistics, which discusses the interrelationship between ethnic culture and language.

Keywords: ethnolinguistics, speech etiquette, ethnic factors, language and culture, comparative linguistics, pragmalinguistics, psycholinguistics, mythopathic creativity, diachronic ethnolinguistics, history of spiritual culture.

Etnolingvistika tilning etnik jihati va etnosning lingvistik xususiyatlarini ifodalash, ichki va millatlararo aloqalardagi etnolingvistik jarayonlar, etnik jamoalarning shakllanishi va faoliyatida tilning oʻrni, til va anʼanaviy madaniyat, tafakkurning etnik oʻziga xosligi, dunyo tillarining etnolingvistik tasnifini ifodalaydi. Tilshunoslik tabiiy til, uning tuzilishi va qonuniyatlarini oʻrgansa, etnolingvistika xalq madaniyatining tildagi ifodasini oʻzida namoyon etadi, yaʼni tilda oʻz aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi oʻxshatish va metaforalar, antroponimlar, nutqiy etiket shakllarini oʻrganadi. Til muammolarini tarixiylik tamoyili asosida hal qilishga kirishgan yosh grammatikachilarni tanqid qilishga asoslangan pozitivizm va neolingvistika nazariyalari XX asrning bosh larida shakllanadi. Pozitivizm (lotin cha pozitivis-ijobiy) empirik fanlarni bi lish yoʻlidir. Pozitivizmning asoschisi fransuz filosofi Ogyust Kont (1798-1857) boʻlib, bu atamani ham u kiritgan. SenSimonning kotibi va xizmatkori boʻlgan O. Kont oʻz gʻoyasini “Pozitiv filosofiya kursi” asarida bayon etgan.

O. Kont oʻz nazariyasida rivojlanishning uch hadli formulasini tavsiya etadi va unga koʻra quyidagi uch yoʻnalish shakl landi:

1. Bilishning va mantiqning rivojlanishidagi uch bosqich qonunini tan oluvchilar: O. Kont, E. Littrye, L. Laffit (Fransiya), Mil, Spenser (Angliya).
2. Obyektiv-real predmetlarni hatto shaklan eʼtirof etishdan ham bosh tortuvchilar: Neyrat, Karnap, Shlik, Frank (Avstriya), Reyxenbax, F. Krauz (Germaniya).
3. Tilning, simvolik mantiqning muammolarini alohida tan oluvchilar. Pozitivistlar maktabi oʻz faoliyatini R. Meringer tomonidan nashr qilingan “Soʻzlar va narsalar” nomli jurnal chiqishi bilan boshladi.

Bu jurnal nomi pozitivizm oqimining nomi sifatida ham qoʻllaniladi. “Soʻzlar va narsalar” nazariyasining tarafdorlari soʻzlar tarixini oʻrganishda lingvistik tahlil bilan

chegaralanmay, balki soʻzlar ifodalovchi narsalar tarixini ham oʻrganganlar. “Soʻzlar faqat narsalarga bogʻliq holda yashaydilar”, -degan nazariyaga amal qilgan holda ish tutdilar. Soʻzlar va narsalar nazariyasining tarafdorlari tilshunoslikning etimologiya, leksikologiya va semasiologiyasi sohasida katta ish qilganlar. Soʻzlar va narsalar oqimining koʻzga koʻringan namoyondalaridan biri Gugo Shuxarddir (1842-1928). G. Shuxard yetuk tilshunos sifatida koʻplab asarlar yozgan. U nazariyotchi sifatida emas, balki tilshunos-tanqidchi sifatida yaqqol koʻzga tashlanadi. Til muammolarini pozitivizm nuqtayi nazaridan turib hal qiladi. G. Shuxard tilni gapiruvchi shaxsning mahsuli deb qaraydi. Gapiruvchi shaxsning xarakteri, yashash sharoiti, yoshi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasi qanday boʻlsa, tili ham shunday boʻladi, deydi G.Shuxard. Bunday deyish bilan u til va nutqni bir-biriga tenglashtiradi. Uningcha, tildagi oʻzgarishlar va ularning asosiy sababchisi tillarning chatishishidir. “Dunyoda hech bir til yoʻqki, ular bir-biri bilan chatishmagan va boshqa til elementlarini qabul qilmagan boʻlsin”. Xuddi shu xildagi fikrlarni keyinchalik akad. N. Ya. Marr asarlarida ham uchratamiz. G. Shuxard yosh grammatikachilarga qarshi chiqib, tovush larning oʻzgarishidagi qonuniyatni, maʼlum dialekt - sheva va tillar oʻrtasida mavjud boʻlgan chegarani inkor qildi. U tillarning geneologik tasnifi oʻrniga “Geografik tenglashtirish” nazariyasini olgʻa surdi. Bu nazariyaga koʻra, tillarning geografik joylashishiga va elementlar qarindoshligiga qarab tasniflash kerak boʻladi. Pozitivizm oqimining vakillaridan yana biri K. Fosslerdir (1872-1947). K. Fossler pozitivizm oqimida estetik idealist sifatida koʻzga tashlanadi. Fossler faqat tilshunosgina emas, balki adabiyotshunos hamdir. Tilshunoslikda estetik idealist sifatida oʻz dasturiy fikrini “Tilshunoslikda pozitivizm va idealizm» (1904) nomli ishida bayon etgandir. Bu kitobda olga surilgan fikrlar uning keyingi” Til-ijod va taraqqiyot sifatida” (1905), “Til falsafasiga doir tanlangan maqolalar” (1928) “Tilda ruh va maʼnaviyat” (1925) nomli ishlarida yanada rivojlantirilgan.

K.Fossler nemis olimi V.Gumboldt va italyan olimi B.Krochelarning idealistik taʼlimotiga asoslanib ish koʻrdi. Yosh grammatikachilarning taʼlimotini idealistik pozitsiyada turib tanqid qiladi va ularni pozitivistlar deb ayblaydi. U tilning shaxsiy ijodiy akt hodisasi sifatida qarab, tilni bosh qa estetik kategoriyalar bilan tenglashtiradi. Shuning uchun ham K. Fosslerning tilshunoslikdagi qarashlarida uch asosiy tayanch nuqtani koʻramiz: 1) umumiy planda falsafiy idealizmga asoslanadi. 2) lingvistik planda til falsafasiga tayanadi. 3) estetik idealizm pozitsiyasidan turib til muommolarini hal qiladi-da, yosh grammatikachilarni tanqid qiladi. K. Fossler tilning estetik kategoriyalar bilan bir qatorga qoʻyar ekan, tilshunoslikni estetikaga kirish deb ataydi. K. Fossler tilshunoslik oldiga koʻplab yangi vazifalarni qoʻydi. Jumladan, stilistikani lingvistik nuqtayi nazardan oʻrganish, yozuvchi tilining umumxalq ona tiliga munosabati til taraqqiyotining madaniyat tarixi bilan bogʻliqligi kabi masalalarni koʻtarib chiqdi. Lekin K. Fossler bu masalalarni idealistik metod

pozitsiyasida turib, subyektiv xarakterda hal qildi. XX asrning 20-yillarida yangi lingvistik oqim neolingvistika paydo bo'ldi. Neolingvistika oqimining shakllanishiga ital'yan filosofi Benedetto Krochening "Ruh filosofiyasi" asari ta'sir ko'rsatgan.

Kroche "olamiy ruh yuksalishi"ning 4 bosqichini belgilaydi:

1. Estetik bosqich (ruhning ayrimlikda gavdalanishi).
2. Mantiqiy bosqich (yalpi umumiylik sohasi).
3. Iqtisodiy bosqich (xususiy manfaatlar sohasi).
4. Axloqiy bosqich (umumiy manfaat sohasi).

Estetik o'zlashtirishning uch tomoni borligini ko'rsatadi:

1. Obyektiv voqealidagi estetiklik.
2. Subyektiv estetiklik (estetik ong).
3. San'at. Neolingvistik nazariya tarafdorlari sifatida M.Bartoli, J.Bertoni, V. Pizanini ko'rsatish mumkin.

Neolingvistika oqimining ish metodi va tamoyillari "Neolingvistikaning qisqacha ocherki"da (1925) bayon etilgandir. Neolingvistika oqimi ham idealistik tilshunoslik maktablaridan biridir. Lekin bu maktab vakillari pozitivistlarga nisbatan yosh grammatikachilarga ko'proq yopishib tilshunoslikda eklektik idealizmni rivojlantiradi. O'z nazariyalarini yaratishda V. Gumboldt falsafasiga, B. Kroche estetikasiga, G. Shuxard pozitivizmiga K.Fosler estetik idealizmiga, J. Juleron lingvistik geografiyasiga asoslandilar. Agar yosh grammatikachilar fonetik qonuniyatlar bilan qiziqqan bo'lsa neolingvistlar umumiy tilshunoslik bilan shug'ullanadilar. Neolingvistlar o'z dasturlarida tilni tarixiy jihatdan o'rganishni uqtirgan bo'lsalar ham lingvistik geografiya tuzishdan nariga o'tmadilar. Til hodisalarini yoritishda geografik omilga ko'proq e'tibor berdilar. Neolingvistika oqimi vakillari pozitivistlar kabi ayrim so'zlarning etimologiyasini hal qilishga e'tibor berdilar. Agar pozitivistlar so'zlar etimologiyasini narsalarga bog'liq holda hal qilsalar, neolingvistlar tarixiy nuqtayi nazardan aniqlashga harakat qiladilar. Tilshunoslikda neolingvistlarning yutug'i ham shundadir. Umuman pozitivistlar va neolingvistlar til muommolarini idealistik nuqtayi nazardan hal qildilar.

Antropologiya insoniyatning va madaniyatning turli formalarini o'rganish bilan birga til formalarini ham o'rganishi kerak, deydi. Ularcha, til madaniyatning turli formalarini hosil qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, turli mantiqiy va dunyoqarash kategoriyalarining shakllanishida ham til asosiy rol' o'ynaydi. Ana shu nazariya asosida S. Sepir va B.Uorfning etnolingvistik qarashlari paydo bo'ldi. E. Sepir (1884-1939) faqat tilshunosgina emas, u antropolog, Amerika, Osiyo, Yevropadagi bir qancha tillarni bilgan va til nazariyasi bilan qiziqqan. Uning "Til" deb atalgan asari 1921-yilda nashr qilingan. Bu asarda uning etnolingvistik qarashlari o'z ifodasini topgandir. U Amerikadagi bir qancha indus tillarini o'rganishda asosiy e'tiborni til hodisalari bilan ijtimoiy faktlarning bir - biriga munosabatini kuzatishga qaratadi.

Bundan tashqari, til va madaniyat birligini axtarishga qiziqadi. Uningcha ijtimoiy voqealik va madaniyat ta'sirida bo'lgan kishilar ma'lum konkret til ta'sirida ham bo'ladi. Ma'lum bir til gruppasi ma'lum irqiy va madaniy zonada hukmronlik qiladi. E. Sepirning bu gipotezasini keyinchalik Benjamen Uorf (1897- 1941) davom ettirdi. B. Uorf lingvistika bilan qiziqqan yong'inga qarshi texnika injeneridir. O'zining bo'sh vaqtlarida Amerika induslarining madaniyati bilan qiziqadi va Sepir nazariyalarini o'rganib, antropologiya, filosofiya, lingvistika sohasida bir qancha maqolalarni nashr ettiradi. B. Uorfning fikricha, har bir sharoit voqelik va borliq tillar strukturasiga bog'liq ravishda turli ta'sir etadi. Biz o'z tabiatimiz o'z ona tilimiz ko'rsatib bergan yo'nalish bo'yicha yoritamiz. Tildagi kategoriya va formalar dunyo voqealaridan ajralgan holda turadi. Beto'xtov dunyo voqealarini aks ettirganimizda ongimizga ma'lum bo'lgan formalarni tanlab olamiz. Inson qaysi muhitda yashasa o'sha muhit haqida tasavvur qiladi. Uorf ta'kidlaydiki har bir til metafizikaga ega. Tilning mazmuni mavjud bo'lgan madaniyat mazmuniga mos keladi.

Tildagi o'zgarishlar fonetika, analogiya va chetdan so'z qabul qilish sohasida bo'ladi, deydi A. Meye. Ana shu uch o'zga rish asosida umumiy qonuniyatlarni belgilash tilshunoslik ning vazifasidir. Lekin bu qonuniyatlar empirik yo'l bilan aniqlanishi kerak, deydi u. "Til aloqa vositasi sifatida ijtimoiy hodisadir va u jamoaning yutug'idir. Tildagi o'zgarish aloqada shaxsga bog'liq emas. Til aloqa vazifasini bajaruvchi vosita sifatida murakkab ifoda vositasiga egadir. " Bu fikrlar tilni ijtimoiy hodisa deb tu shunuvchi A. Meye asarlarida bayon etilgandir. A. Meye XIX asrda vujudga kelgan qiyosiy- tarixiy metodning bir qancha kamchiliklari borligini ko'rsatdi va uni mukammallashtirish kerakligini ta'kidladi. Bu metodni mukammallashtirish uchun hozirgi nutqiy faoliyat ustida kuzatish olib borish kerakligini uqtirdi. Chunki ana shu nutqiy faoliyatda ba'zi tarixiy formalarni ham uchratish mumkin . Tildagi ijtimoiy o'zgarishlarni, asosan, tovushlarning o'zgarishida ko'radi. A. Meye tilni ijtimoiy hodisa deb tushunsa-da, u tilning taraqqiyot qonunlarini belgilashda noto'g'ri xulosa chiqaradi. U jamiyat tuzilishining o'zgarishi bilan til qurilishi ham o'zgaradi, deb qaraydi. Agar G. Paulda tarixiylik psixologizmning shakllanishiga olib kelgan bo'lsa, A. Meyeda tarixiylik yo'li sotsiologizmga, ya'ni tilni ijtimoiy hodisa deb tan olishga olib keldi. J. Vandriesning sotsiologik qarashlari uning "Til tarixiga lingvistik kirish" nomli asarida bayon etilgan. Til ijtimoiy fikrlash sifatida uning paydo bo'lishi aloqa ehtiyojini qondirishidir. Lingvistik belgi o'zboshimchalikdir. Fonetik qayta yasaliş xususiy xarakterdadir. Agar til jamoaning ehtiyojini qondirish darajasiga yetsagina hukmron bo'lib qoladi. Ma'lumki, xalqning madaniy taraqqiyoti bilan grammatik kategoriyalari o'rtasida aloqa bo'lmaganidek, til bilan irq o'rtasida ham aloqa yo'qdir. Grammatik kategoriyalarning chiqib kelishi ijtimoiy bo'lib, kishining jamiyatdagi sharoitlari bilan belgilanadi. Analogiya noto'g'ri grammatik shakllarni yo'qotadi va morfologiyaning takomillashishiga olib keladi. Fonetik faktorga ko'p ahamiyat

bermaslik kerak. Har bir soʻzda boʻladigan oʻzgarish ijtimoiy talablar natijasida kelib chiqqandir. Tillarning taraqqiyotida ikki kuch kurashini koʻramiz. Biri differentsiatsiya tomon olib borsa, boshqasi unifikatsiya tomon olib boradi. Natijada tillarning bir - biri bilan chatishishi paydo boʻladi. Chatishish tillarning hayotida asosiy rol oʻynaydi. Bu fikrlar J. Vandriyesning sotsiologik qarashlari nuqtayi nazaridan hal qilingandir. Bundan tashqari, J. Vandriesning emotsional, effektiv nutq, til va tafakkurning munosabati, dialektlar, tilning yozma va adabiy shakllari, lingvistik geografiya, yozuv va tillarning tasnifi haqida original fikrlar bayon etgandir. Umuman, sotsiologizm oqimi tillarning umumiy va xususiy belgilarini yoritishda katta ishlar qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbek tili davlat tili toʻgʻrisida” gi qonuni 1989-yil 21-oktabr;
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi Farmoni;
3. Oʻzbekiston Respublikasining “2020-2030-yillarda oʻzbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”;
4. Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." JournalNX, vol. 7, no. 11, 2021, pp.